

AMALIY SAN'AT ASARLARINI YARATISHDA BADIY BEZATISH USLUBLARI

O'rozboqova Dilnura Barot qizi

*Abdulla Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
yo'nalishi 101- guruh talabasi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail:drustamova079@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq amaliy san'ati turlari va ularni badiiy bezarish usullarining kelib chiqishi, yuksalish davri shu bilan bir qatorda hozirgi kundagi o'rni va darajasi ko'rsatib berilgan va kerakli adabiyotlar yordamida isbotlangan, ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki, amaliy bezak san'ati insoniyat yaratilgandan buyon, asrlar davomida sayqallanib kelingan, eng muhimi bugungi kungacha saqlanib qolgan haqiqiy san'at turidir.

Kalit so'zlari: panjara guli, haykaltaroshlik, to'r gilam, mato, jug'rofiya

Annotation. This article shows the origins of the types of folk arts and methods of their artistic decoration, the period of their rise, as well as their current place and level, and is proved by the necessary literature. , applied decorative art is a true art form that has been polished for centuries since the creation of mankind, and most importantly has survived to this day.

Keywords: grill flower, sculpture, net carpet, fabric, geography

Xo'ja Ahmat Yassaviy maqbarasida saqlangan ulkan qozon (1390) bezaklari, o'yib naqshlangan eshik (1397), kumush qadab nafis ishlangan shamdonlar o'sha davr amaliy san'atning nodir namumasidir. XX-asr boshlarida O'zbekiston amaliy bezak san'ati qadimgi ananalarga asoslangan holda, yangi zamonaviy mavzular bilan boyitib rivojlantirildi. Ustalar turli maktab an'alarini uyg'unlashtirib, o'ta ehtiyotkorlik bilan me'moriy bezak mujassaotiga kiritishmoqda. Badiiy hayotda ro'y berayotgan jarayonning ta'siri hamda mahalliy badiiy an'analarning boyligi badiiy tajribada an'anaviy bo'lmagan yakka tartibdagi mualliflik bezak san'atini rivojlantirmoqda. O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan, Jahonga mashhur nafis san'at maktabining noyob an'alarini avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, milliy tasviriy, amaliy miniatyura san'atining nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, nafis san'atlar sohasidagi ilmiy izlanishlarni ishlab chiqarishga tadbiq etish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini barpo etish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, akademik ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston badiiy akademiyasi tashkil etildi (1997- yil 23- yanvar qarori) "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab quvvatlash chora tadbirlar to'g'risida"gi (1997-yil 13-mart) qarori milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchilik va Amaliy san'atning ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan yuksak badiiy

buyumlarni tayyorlash asriy an'analarni va o'ziga xos turlari qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq ananaviy amaliy san'atining yangidan tiklanishi va rivojlanishi har yil Navro'zda o'tkaziladigan Amaliy san'at ko'rgazmalarida namoyon bo'lmoqda. Amaliy san'atning hamma sohalarida professional rassom, haykaltaroshlar o'rtasida hamkorlik mavjud. Amaliy san'atning shakllanishi, taraqqiyoti jarayonida badiiy uslublar almashinuvi san'atning boshqa turlari bilan bog'liq ravishda davom etadi.

Amaliy san'at, amaliy bezak san'ati – bezak san'ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'atda badiiy bezatish uslublari o'zining kerakli asboblari bilan amalga oshiriladi, birinchi navbatda bezatish uchun hom ashyoni silliqab chizish holatiga keltiriladi, keyin ketma ketlikda ish olib boriladi. Sillig'langan hom ashyoga nafis naqsh masalan (axta, bofta, bodom, anor gul,) chiziladi. Naqshni bo'yashdan oldin tayyor bo'yoq oq qog'ozga surtib sinab ko'riladi. Qorib tayyorlangan rang tusi talabga javob beradigan bo'lsagina, u bilan kerakli joylar bo'yab chiqiladi. Keyin siyoh qalam – eng nozik qil qalam hisoblanib uning yordamida naqsh elementlarining atriflari bir xil qalinlikda ravon chizib chiqiladi. Targ'il yordamida –gul, g'uncha, barg elementlarining turli xarakterlarini taroq sifat shakllar yordamida ochib beriladi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy nuhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o'zining ko'rinishi, tuzilishi xususiyatlari insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir qiladi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanishdan tashqari badiiy qimmati bo'lgani uchun ham qadirlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'atda estetik ta'sirini oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir. Amaliy an'atda buyumlarning nafisligiga ikki usul bilan erishiladi: 1) shakli oddiy, jo'n buyumlarga bezak ishlab badiiy qiymati oshiriladi; 2) shakli chiroyli qilib ishlanadi. Buyumlarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassotida muhim ro'l o'ynaydi. Xom ashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining ma'romi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositadir. Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum Amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (rangtasvir, haykaltaroshlik ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo'llaniladi.

Ba'zan naqsh yoki tasviriy buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi (panjara guli, to'r, gilam, mato gullari va hokazo). Amaliy san'at asosining uyg'unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o'zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo'ladi. Bezakning shakl, tasvirining buyum ko'lami va xususiyati, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg'unlashtirishning zarurligi tasviriy bo'laklarni o'zgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini o'xshatib yaratishga olib keladi. XIX-asr 2-yarmidan ilmiy adabiyotlarda Amaliy san'at asarlari foydalanilgan xom ashyosi (yog'och, sopol, ganch, tosh, metall, suyak va boshqalar) va ijro usuli (bo'yash, o'yib-kesib ishlash, kashta tikish, to'qish va boshqalar) ga qarab farqlana boshlandi. Amaliy san'atda bu esa o'z navbatida buyumlarga ishlov berishni loyihalash (dizayn) va uni ishlab chiqarish bilan bog'lanishi (badiiy sanoat)ga zamin yaratadi. Amaliy san'at asarlari yaratilgan davrining maishiy qatlamiga mos mahalliy va milliy xususiyatlarni, ijtimoiy guruhlar bilan yaqin munosabatda bo'lgan uning moddiy madaniyatini ifoda etadi. Asrlar mobaynida xalq, ijodiyotining sohasi sifatida amaliy bezak san'ati yuzaga kelgan. Islom dini qaror topishi bilan Amaliy san'atning turli sohalarida badiiy bezak asarlari, mavhum naqsh-bezaklar yaratishga intilish kuchaydi. IX-X-asrlar me'moriy naqqoshlikda handasiy (yulduzsimon shakllarning turli ko'rinishlari) va arab yozuvlari ishlash yetakchi o'rinda turgan. Girih san'ati yuksaldi. Rangli sirning ixtiro qilinishi (VIII asr) bilan badiiy kulollik taraqqiy etdi. Samarqand, Toshkent, Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda sopol idishlarga naqsh-bezaklar ishlab, bo'yab, ustidan sirlash usuli o'zlashtirildi. Dastlab sodda yashil bezak ustidan xira sir qoplangan yoki 2-3 xil rangda sir dog'lari oqizilgan idishlar ishlangan bo'lsa, X-XI-asrlarda idishning oq yoki g'isht rang qizil zaminiga rangli angob bilan aniq naqsh mujassaoti tushirilib, ustidan tiniq (shaffof) qo'rg'oshin sir qoplangan. Amaliy san'atning shakllanishi, taraqqiyoti jarayonida badiiy uslublarni almashinuvi san'atning boshqa turlari bilan bog'liq ravishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirzaxmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish. Toshkent, O'qituvchi. 1996
2. Manakova V.N. O'zbek xonadonining badiiy bezatish madaniyati. Toshkent. G'. Gulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti. 1989
3. Bulatov S.S O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent "Mehnat" 1991
4. Abdullayev N. San'at tarixi. 2-tom Toshkent. "O'qituvchi" 1986
5. Abdullayev N. San'at tarixi. Toshkent. San'at. 2001

6. Bulatov S.S. Ashurova M.O Amaliy san'at qisqacha hujjat. –T
Qomuslar bosh tahririyati. 1992.